

Musiqa o'qituvchisini zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash

Esanova Mahliyo Jamilovna
Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası
12-1 vokal 20 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa o'qituvchisining zamonaviy texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishi va darsni qiziqarli o'tishi uchun qanday usullardan foydalanishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, texnologiya, mahorat, interfaol metodlar.

Аннотация: В этой статье рассказывается, как учитель музыки может использовать современные технологии на уроке и как сделать урок увлекательным.

Ключевые слова: педагог, технология, мастерство, интерактивные методы.

Annotation: This article describes how a music teacher can use modern technology in the classroom and how to make the lesson fun.

Keywords: educator, technology, skill, interactive methods.

Zamonaviy o'qituvchi - kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisidir.

Milliy tajribaning taxlili va ta'lim tizimida jahon miqyosidagi yutuqlarga tayanib yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish, istiqbol vazifalarini ilgari surish va xal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishda pedagog mahorat alohida o'rin tutadi.

Milliy dasturda ko'zda tutilganidek, zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuterlar mukammalashib, barcha o'quv jarayoniga, jumladan, musiqa fanini o'qitish jarayoniga ham tatbiq etib borilyapti. Musiqa fani o'qituvchining pedagogik mahorati - o'quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, talaba-o'quvchilarda musiqiy-ma'naviy dunyoqarash qobiliyatini shakllantirish, jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish asosiy vazifalardan hisoblaniladi. Ma'lumki, musiqiy-pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni musiqiy-pedagogik faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Musiqa o'qituvchisining mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Shunga ko'ra musiqiy-pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Bir avlodning musiqiy tajribasini, ikkinchi

avlodga o'tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi musiqiy tushunchaga oid tabiiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi.

Musiqqa o'qituvchisi doimo o'sib-o'zgarib boradigan yoshlar bilan ishlaydi. Ularga musiqiy ta'lim-tarbiya bo'yicha yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan hatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa musiqqa o'qituvchisidan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

Hozirgi kundagi eng dolzarb masala va vazifa musiqqa ta'limi standartlarini o'quv jarayoniga tatbiq etishdan iboratdir. Agar bu vazifa amalga oshirilmas ekan, musiqiy ta'lim - tarbiya sohasida sifat va samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini takomillashtirish masalalari hal etilmay qoladi.

Musiqqa madaniyati o'qituvchisining pedagogik mahoratlaridan eng avval, ta'lim - tarbiya sohasida orttirilgan tajribalarni o'rganishi lozim. Bu albatta, ko'pgina muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi. Musiqqa fanidan dars beruvchi tajribali o'qituvchilar faoliyati bilan bir qatorda oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari ham o'rganib boriladi. Chunki musiqqa ta'lim-tarbiyasi bo'yicha tajribalarni o'rganish jarayondagi muammo: yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Bunda kuzatish, intervyu olish, anketa so'rovlari, savol-javob, o'quvchilarning yozma va ijodiy ishlari, pedagogik xujjatlarini o'rganish metodlardan foydalaniladi, Masalan: kuzatishda o'rganish lozim bo'lgan pedagogik hodisani ma'lum maqsadidan kelib chiqqan holda kuzatish ishlari natijalari bo'yicha bayonnomalashtirishni olib boradi. Bu jarayon aniq reja asosida olib borilishi kerak. Suhbat esa turli dalillar to'plash yoki kuzatish davomida to'plangan musiqiy materiallarga aniqlik kiritish maqsadida olib boriladi. «Suhbat mustaqil yoki yordamchi metod sifatida qo'llaniladi». Anketalashtirish musiqqa tegishi materialni to'plash maqsadida amalga oshiriladi. Mahoratli musiqqa o'qituvchisi barcha o'quvchilarning musiqqa sohasidagi xujjatlarini o'rganishi lozim. Bunga o'quvchilarning maktabdan tashqari musiqiy faoliyatlarga qatnashishi, musiqqa maktabida ta'lim olish hiujjatlari nazarda tutiladi. Shuningdek, darsdan tashqari musiqiy to'garak ishlarini ham olib boradi. Jumladan: Qadimgi Gretsiyada musiqqa yordamida donolikni, mardlikni tarbiyalashi mumkin deb hisoblangan. Haqiqatdan har bir san'at insonga ruhiy ta'sir ko'rsatadi. Musiqqa, ayniqsa, hissiy ta'sir etishda katta kuchga ega. Shuning uchun ko'pgina davlatlarda musiqadan ko'p yo'nalishlar bo'yicha keng foydalaniladi.

Musiqqa o'qituvchisi o'quv va tarbiya ishlarini olib boradi. U faqatgina keng bilimga ega bo'lib qolmay, o'zining fanini ham yaxshi va chuqur bilishi lozimdir. Bolalarni musiqqa san'ati bilan tarbiyalashda dunyoqarashi, fikrlashi, tushunchasi birinchi darajali ahamiyatga egadir. Musiqqa kishi hissiyotini, ayniqsa hissiy estetik hissiyotini faol rivojlantiradi.

Musiqqa o'qituvchisi yaxshi sozanda va yaxshi san'atkor bo'lishi lozimdir. Musiqqa cholg'usida yaxshi chalish, ijro eta olish, yaxshi ovozga ega bo'lishi, notaga qarab yaxshi ijro qilishi, bolalar qobiliyatini ajrata bilishi lozimdir.

O'qituvchi, bulardan tashqari, boshq fanlar darslarini kuzatib borishi ham lozimdir. Doimiy kuzatishlar orqali pedagogik mahoratini egallab boradi. U vaziyatni baholashga, o'quvchilarning ichki tuyg'ularini sezishga o'rganadi. Kuzatish 1-7 sinflar davomida amalga oshiriladi. Eng asosiysi: o'qituvchi musiqqa asarini ijro etibgina qolmay, balki uning mazmuni bilan ham tanishtirishi lozim, buning uchun o'qituvchining nutqi ravon, qisqa, hamda tushunarli bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublardan foydalanib, musiqqa ta'limining samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari mustaqil ravishda topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Musiqiy-pedagogik texnologiya masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy - tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, musiqiy-pedagogik texnologiya - bu faqat o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan turli xil texnik vositalardan foydalanish deb belgilanadi.

Musiqqa ta'limining o'ziga xosligi tashkiliy tuzilishi, amaliy ijrochilik faoliyatlari, shuningdek o'qitish usullari, ularning samaradorligini ta'minlovchi omillar, vositalar tahlili va ularni umumiy ijodiy – ijobiy jihatlarini umumlashtirish musiqqa ta'limini o'zigagina xos bo'lgan yangi turlarini ishlab chiqish imkonini berdi. Bular ham o'z maqsadi va bajaradigan vazifasi mazmun va mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya bo'lib, ularni musiqqa mashg'ulotlariga tadbiiq etish yaxshi natija bermoqda. Bunday darslar o'quvchilarda yaxshi kayfiyat, jo'shqinlik, ko'tarinki ruh va intilishni kuchaytirmoqda. Ular qatoriga hozirgi kunda ilg'or, tashabbuskor musiqqa o'qituvchilari tomonidan keng qo'llanilayotgan quyidagi texnologik darslarni alohida ko'rsatishimiz mumkin:

- konsert darslar;
- konkurs darslari;
- kuyni top;
- men dirijyor darslari;
- musobaqa darslari va h.k.

shu o'rinda qayd qilib o'tish joizki, bo'lajak musiqqa o'qituvchilarini texnologik faoliyatga tayyorlash [bir fan doirasida emas](#), barcha fanlarni o'qitilishida yaxlit tizim

asosida tashkil etilsagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Ya`ni musiqani xor va xorshunoslik, dirijyorlik, vocal ijrochiligi, cholg`u ijrochiligi, musiqa tarixi, musiqiy asarlar tahlili, musiqa o`qitish metodikasi (bu fanlar talabani kelajakdagi musiqa o`qituvchilik faoliyatida muhim o`rin tutuvchi fanlar hisoblanadi) kabi fanlar o`qitilishi jarayonida kasbga tayyorlash va texnologik jarayonga tayyorlash ishlari bir – biri bilan uzviy bog`liq holda amalga oshirilsa va tadbirlarning (mashg`ulotlarning) har biri bosqichma – bosqich bo`lajak o`qituvchilarni ta`lim jarayonini mohirona ilg`or pedagogik texnologiya asosida tashkil etishga tayyorlasagina u bir butun tizim sifatida samaradorlik kasb etadi.

Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash va unga oid ko`nikma va malakalarni shakllantirish uchun avvalo o`quv – biluv faoliyatidan unumli foydalana bilish, talabalarni har bir fan o`qitilishida pedagogik texnologiyalarni qo`llay olish mahoratlarini egallab borishlariga erishish zarur. Masalan, dirijyorlik mashg`ulotlari jarayonida “Talaba treningi”, “Men dirijyor”, “Klaster”, Musiqa nazariyasi fanini o`tishda “Aqliy hujum”, “Skarabey”, “Bahs - munozara”, “Muloqot”, “Guruh bo`lib ishlash”, Xor va xorshunoslik asoslari mashg`ulotlarida “Kichik guruhlar holiday ishlash”, “Individual ishlash”, “Savol - javob”, Cholg`u ijrochiligi darsini o`qitishda “Kuyni davom ettir”, “Dars sayohat”, “Konkurs darslar” texnologiyalarini qo`llash va talabalarni bunday faoliyatga tayyorlab borish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, musiqa - san'at sifatida ijtimoiy ong formasidir. U kishining his tuyg'ularini ifodalash bilan birga, hayotni voqiylik va davr in'ikosidir. Musiqa darsi jarayonining asosiy omillari sifatida quyidagilar mavjud: musiqani eshitib zavqlanish, qo'shiq ijro etish, musiqa savodiga doir xususiyatlarini anglab olish, raqsga tushish va musiqa sadolari ostida turli harakatlarni bajarish, chapak va cholg'u asboblari ijrosi, maqsadini idrok etib borishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. B.X.Madrimov “MUSIQA O`QITISH TEXNOLOGIYALARI VA LOYIHALASH” (darslik) TOSHKENT-2020
2. Tuzuvchi O. Yusupova “Musiqa ijrochiligi va pedagogikasi masalalari”. Maqolalar to`plami, 8-jild, OOO “Temir yo`lchi” –T., 2014.
3. Mannopov S. “O'zbek xalq musiqa madaniyati”. –Toshkent., “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2004 yil.
4. Xoliqov A.. Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011.
5. Ruziyev D.Yu. Ansambl bilan ishlash uslubiyoti. Darslik. Buxoro, “Durdona” nashriyoti, 2021.

6. RAXMANOVA, Istatjon. "MUSIQA TA'LIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING MAVJUD HOLATI." *Journal of Culture and Art* 1.10 (2023): 86-89.
7. Muminovna, Rakhmanova Istatjon. "Pedagogical Requirements for a Modern Music Teacher and His Possibilities of Using Technologies." *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT* 2.4 (2023): 244-247.
8. Muminovna, Rakhmanova Istatjon. "PREPARING A MUSIC TEACHER TO USE MODERN TECHNOLOGY." *Thematics Journal of Arts and Culture* 6.1 (2022).
9. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 496-501.
10. Ramazonova U. H. Features of Sound Recording in the Uzbek Singing Art //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN. – T. 2795. – №. 546X. – C. 58.
11. Kholmurodovna R. O., Esanova M. J. The Importance of Imagination and Perception in Traditional Singing Performance //Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 73-74.
12. Ramazonova, Ugiloy Holmurodovna, and Maftuna Muhamadova. "The spiritual impact of traditional sound exercises on the minds of students." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.3 (2022): 318-321.
13. Saidaxmedov S. et al. XORAZM MAQOMLARINING TALABALARGA O'RGATISH USULLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – C. 324-326.
14. Рамазонова У. Х. Взгляды восточных мыслителей на узбекскую народную музыку //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 45-46.
15. Рамазанова У. Х., Давронова М. Б. ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАУКЕ ОБ ОСНОВАХ ТЕХНИКИ ПЕНИЯ //International conference on multidisciplinary science. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 94-96.
16. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501.